IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680
E-ISSN : 2181-4341

VOL–2, ISSUE–1
https://wordlyknowledge.uz/

YANGI O'ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLARNING HUQUQ VA MANFAATLARINING TA'MINLANISHI

Mamatova M.T

NavDPI Tarix qo'shimcha davlat huquqi yo'nalishi
2-bosqich talabasi

Ro'ziyeva D.M

Ilmiy rahbar: t.f.f.d.(PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada, xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ta'minlash ularni, ma'naviyatini boyitish, ilm-u salohiyatini yuksaltirish,kasb-hunar o'rgatish davlat idoralarida ularning safini yanada kengaytirish masalalari keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: Xotin-qizlar, ''El-Yurt umidi'', ''Olima Ayol'', Oliy Majlis, Milliy Parlament, Taraqqiyot Strategiyasi, Mahalla Instituti, Oila Instituti, Indira Gandi, Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, ''Baxtiyor Oila'', ''Ayollar Kutubxonasi'', To'maris, Nodirabegim, Uvaysiy, Zulfiyaxonim.

Tarixan olib qaraydigan bo'lsak, Xotin-qizlarni Savodxonligini oshirish, ularni oila va jamiyatdagi o'rnini mustahkamlash va ma'naviy kamolotini boyitish masalalariga chuqur yondashilmoqda. Bugungi kunda esa bu masala o'zining dolzarbliligi bilan muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zero ma'naviyat bor joyda yuksalish, kamolot namoyon bo'ladi. Millatning ma'naviyati esa barcha tizimga ta'sir etuvchi kuchli omildir. Yuksak ma'naviyatli inson nafaqat yurt boyligi hisoblanadi, ba'lki ikki dunyo saodatini o'zida mujassam eta oladi. Bugungi tinch va osuda zamonda ko'pdan- ko'p islohotlar amalga oshirilib,hayotimizning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarimizning samaradorligi avvalo xalq ma'naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning chuqur o'rganilishi an'ana va urf- odatlarimizning saqlanishi, madaniyat va san'at fan va ta'lim rivoji, eng muhimi, jamiyat tafakkurining o'zgarishi va yuksalishi bilan uzviy bog'liqdir.[1] Ularning tub negizida inson qadri uchun yo'naltirilgan samarali ishlar natijasi yotmoqda. Jumladan, hozirda Xotin-qizlarning ta'lim va kasbiy ko'nikma olishlari, munosib ish topishlariga har tomonlama ko'maklashish, ularning ma'naviyatini boyitish, iqtidorli xotin-qizlarni aniqlash va ularni qiziqishlaridan kelib chiqib to'g'ri yo'naltirish uchun bor imkoniyatlar ishga solinmoqda. O'zbekistonda bugungi kunda ta'lim sohasida ayollar anchayin faollashgan. Hozirgi kunda Respublikamizdagi Oliy ta'lim muassasalarida 2020-2021 yillarda tahsil olayotgan talaba ayollar soni 260,0 ming nafarni tashkil etgan. Xususan bu ko'rsatkich 2022-2023 o'quv yilida Oliy ta'lim muassasalarining 1-bosqichiga qabul qilingan jami talabalarning 49,3 foizini Xotin-qizlar tashkil qilganligini yaqqol aks ettirmoqda. Hozirda Xotin-qizlarning savodxonlik darajasi 99,98 foizni, ya'ni dunyodagi eng yuqori ko'rsatkichlarni ko'rsatmoqda. Shuningdek ta'lim sohasida xotin qizlarning salohiyati va malakasini tizimli oshirib borishni qo'llab quvvatlash maqsadida 2022-2023 o'quv yilidan boshlab ularga bir qator imtiyozlar yaratildi.

Xususan Oliy ta'lim yurtlarida to'lov kontrakti asosida tahsil olayotgan talaba xotin-qizlarga 7 yil muddatga foizsiz ta'lim kreditlarini moliyalashtirish maqsadida Davlat byudjetidan har yili 1,8 trillion so'm resurs mablag'lari yo'naltirilgan. Shu jumladan, Xorijiy Oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim dasturi bo'yicha- 50 nafar, Magistratura ta'lim dasturi bo'yicha- 10 nafar xotin-qizlarga har yili "El- yurt umidi " jamg'armasi orqali qo'shimcha grant ajratib berildi. [2] Bundan tashqari mutaxassisligi bo'yicha kamida 5 yil mehnat stajiga ega bo'lgan 500 nafar xotin qizlarni har yili tavsiyanoma asosida Oliy ta'limga qabul qilishda belgilangan qabul parametrlaridan tashqari alohida test sinovi o'tkazilib to'lov kontrakti asosida o'qishga qabul

qilish tizimi yo'lga qo'yildi. Eng quvonarlisi, hozirda har bir ayol o'qish, ishlash, bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etilishi uchun juda ko'p imkoniyatlarga ega bo'ldi . Yangi O'zbekiston ayollar uchun chinakam imkoniyatlar eshigini ochdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Yana shuni ta'kidlash joizki davlat ilmiy tashkilotlari yoki oliy ta'lim muassasalari doktoranturasiga xotin qizlar uchun har yili kamida 300 tadan maqsadli kvotalar ajratiladigan bo'ldi. Bundan tashqari xotin-qizlar ilmiy va innovatsion faoliyat bilan shug'ullanishga jalb qilinib borilmoqda. Bu borada ularni loyihalarini qo'llab quvvatlash maqsadida har yili mart oyida " Olima ayol " ko'rik tanlovini o'tkazish Xotin qizlarni rag'batlantirish ishlari yo'lga qo'yiladigan bo'ldi.

Olima ayollar jamiyatiga davlat byudjetidan 50 mlrd. so'm ajratiladigan bo'ldi. Endilikda farzand tarbiyasi bilan band bo'lgan talaba ayollarga keng imkoniyatlar yaratilib, ularning masofaviy ta'lim olishlariga sharoit yaratildi.

Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek: " Odatda biz ayolni avvalambor ona, oila qo'rg'onining qo'riqchisi sifatida hurmat qilamiz. Ammo bugun har bir ayol oddiy kuzatuvchi emas, balki mamlakatda amalga oshirilayotgan o'zgarishlarning faol va tashabbuskor ishtirokchisi ham bo'lishi, kerak ".[3] Buning yaqqol isboti sifatida quyidagilarni aytish joizdir, yurtimiz tarixida birinchi marta milliy parlament tarkibidagi xotin-qizlar soni dunyo miqyosida namunali ko'rsatgichga ko'tarilgani ham bu fikrimizni yaqqol tasdiqlaydi. Xususan o'tgan 2022- yilda Oliy majlis qonunchilik palatasiga saylangan 150 nafar deputatning 48 nafari ya'ni 32 foizini xotin-qizlar tashkil etgan. Milliy parlamentimiz ayol deputatlar va senatorlar soni bo'yicha dunyodagi 140 ta milliy parlament o'rtasida 37- o'ringa ko'tarildi. Qolaversa boshqaruv lavozimidagi xotin-qizlarning ulushi 27 foizga , siyosiy partiyalarda 44 foizga, Oliy ta'lim tizimida 40 foizga, tadbirkorlik sohasida 35 foizga yetgan.[4] Bularning barchasi ayollarning ilm-u salohiyati yuksalib borayotganligi, davlat organlarida o'zlarining fidoyi mehnati bilan faoliyatini izchil davom ettirayotganligini anglatadi.

Bu ozod diyorda islohotlarning chek chegarasi yo'q, ularning hammasi so'zsiz "Inson qadri uchun " degan ustuvor tamoyilni o'zida mujjasam etadi . Shu jumladan Xotin – qizlarimizga doimiy e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatish ham manashu "Inson qadri uchun " dep nomlangan ustuvor tamoyilning ajralmas bir qismidir.Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida 2022- yil 26- yanvarda , 2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan, taraqqiyot strategiyasining qabul qilinishi ham tom ma'noda tarixiy voqea bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi.[5] Bu strategiyada yettita ustuvor yo'nalish bo'yicha " Inson qadri uchun -100 ta maqsad "ni amalga oshirish ko'zda tutilgan. Aynan manashu Taraqqiyot strategiyasining 69- maqsadi "Xotin qizlarni qo'llab quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash " deb nomlanganligi ayollarimizni yana bir karra quvontirdi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov ta'kidlaganlaridek: ''Ayol baxtli bo'lsa, oila baxtli, oila baxtli bo'lsa, jamiyat mustahkamdir''.[6]

Xulosa o'rnida , 1947- yilda Hindiston mustaqillikka erishgach, Xotin-qizlar harakatida ishtirok etgan buyuk davlat arbobi Indira Gandining shunday bir so'zini aytib o'tish joizdir. Gandi aytganidek " Bitta qiz bolani o'qitsangiz, butun oilani o'qitgan bo'lasiz ".

Haqiqatdan ham oilada ayol kishini halol pokiza bo'lishi bilan bir qatorda, bilimli, salohiyatli bo'lishi, kelgusi yosh avlodni voyaga yetkazib kamol toptirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi desak mutlaqo adashmagan bo'lamiz. Bundan tashqari Oila va Mahalla Insititutlarida xotin-qizlarni kitobxonlikka bo'lgan qiziqishlarini hisobga olgan holda ularni bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish bo'yicha "Badiiy kitobxonlik kechalari" o'tkazilib, ularni ma'naviy dunyoqarashlarini boyitish maqsadida, Qadimiy tariximizga oid yuksak qadriyatlar aks etgan tarixiy kitoblarimizni o'rganishga ularni jalb qilish, shuningdek, turmushga chiqish ostonasida

turgan qizlarimizga musulmon xalqi uchun Islomiy oila qadriyatlarini o'zida aks ettirgan Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning "Baxtiyor Oila" deb nomlangan ibratli kitoblarini badiiy kitobxonlik kechalarida targ'ib qilishga yo'naltirishlari darkor. Zero bu kitobni o'qigan qizlarimiz Islom dinida oila atalmush muqaddas dargohning qanday yaratilishi haqida dastlabki tushunchalarga ega bo'lishsin. Shuningdek yangi O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida joylarda alohida Ayollar kutubxonasi ham tashkil etilsa va bu kutubxona tarixda uchmas iz qoldirgan To'maris yoki Uvaysiy va Nodirabegim Zulfiyaxonim kabi oqila ayollarimizning nomi ostida tilga olinsa bu say- harakatlar Xotin- qizlar orasida kelgusida manashunday To'maris, Nodira Uvaysiy kabi shaxslarni yetishib chiqishiga turtki bo'ladi desak, bu mutlaqo maqsadga muvofiq bo'lardi. Bu esa har bitta ayolni baxtiyor etib o'z hayotidan mamnunlik xissini baralla uyg'otadi. Zero o'qib o'rganish ta'lim olish har bir musulmon uchun azaliy muqaddas farz demakdir.

Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. Islom Karimov "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch''-Toshkent, "Ma'naviyat'', 2008, 29-bet.

2. http//:www.ziyo.uz.com.kutubxonasi

3. Shavkat Mirziyoyev 8-Mart xotin-qizlar bayram tadbiridagi nutq so'zi 2022-yil 7-mart 3938

4. http//.paracheloveka.uz.xotin-qizlar faoliyati

5. http//.uz.com.Taraqqstrategy.uz.Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashga doir chora tadbirlar

6. Shavkat Mirziyoyev, "Milliy taraqqiyot yo'limizni qa'tiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz" -Toshkent, "O'zbekiston", 2018, 346-bet.